

DAVLAT VA JAMIYATNI BIRLASHTIRISHDAGI HAMKORLIK TARIXIY SIYOSIY KONTEKSTDA

Ataqulov Qahramon

Toshkent kimyo-texnologiya instituti tayanch doktoranti

ataqulovqahramon@gmail.com +998977022750

Annotatsiya. Ushbu maqolada hamkorlik tushunchasi va uning tarixiy taraqqiyotda insonlar hayoti va davlatning siyosiy hokimyatni boshqarish jarayonlaridagi vujudga kelgan o‘rni haqida tahlil qilinadi. Shuningdek insonlar hayotida davlatchilikdan tashqari, ijtimoiy hayotda ham hamkorlik va o‘zaro ishonchning muhimligi, davlat boshqaruvida qatnashayotgan tomonlarning funksiyaviy hamkorligi ham muhim ekanligi takidlangan.

Abstract. This article analyzes the concept of cooperation and its historical development in the life of people and the role it has played in the processes of political power management of the state. It also emphasizes the importance of cooperation and mutual trust in social life, in addition to statehood, in human life, and the functional cooperation of the parties participating in state governance.

Аннотация. В статье анализируется понятие кооперации и ее роль в историческом развитии, в процессах человеческой жизни и политического управления государством. Также было подчеркнuto, что, помимо государственности, в общественной жизни важны сотрудничество и взаимное доверие, а также функциональное взаимодействие сторон, участвующих в управлении государством.

“Hamkorlik” tushunchasi va mohiyati haqida so‘z borganda ushbu jarayonni tarixiy siyosiy jihatdan tahlil qilish bizga ijtimoiy hayot muommolarini mohiyatini anglash va muommolarga yechim topishga yangicha yondoshuvlarni ro‘yobga chiqaradi. Eramizdan avvalgi antik dunyo faylasuflari (Platon, Arastu, Suqrot) jamiyatda ijtimoiy muhitni yaxshilash, ijtimoiy adolat borasidagi qarashlar ularning asarlarida keltirilganligini bilishimiz mumkin. Bu davr hali markazlashgan davlatlar paydo bo‘lmagan davr bo‘lganligidan kelib chiqib

baholaydigan bo'lsak, markazlashgan davlatning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzi, davlatni boshqarish usullari, davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar va ularni tartibga solish yo'llari haqida ko'pgina qarashlar ilgari suriladi. Ayni, ushbu qarashlar ijtimoiy hayotdagi hamkorlik munosabatlarini siyosiy kontekstda o'rta chiqaradi

Hamkorlik yoki alohida tiranya shaklidagi tuzulmalar o'rtasidagi hamkorlik borasidagi qarashlarni uchratmasakda, tenglik, erkinlik, adolat, huquq kabi jamiyat farovonligining tamoillarini ilgari surishda hududagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashda umumiy yondashuvni ko'rish mumkin. Vaholanki, insoniyat tamaduni beshiklaridan bo'lgan Yunonistinda eramizdan avvalgi II ming yilikda "Buyuk yunon koloniyalashtirilishi" davridan O'rta Yer dengizi mintaqasida aloqalar doimiy o'rnatilganligini bilish mumkin. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, keyingi davrlarda Misr va Mesopatamiya kabi sivilizatsiya markazlarida mavjud bo'lgan davlatlar aholisi bilan ham o'zaro tenglik, ixtiyoriylik asosida savdo-iqtisodiy, madaniy munosabatlar o'rnatilganligidan guvohlik beradi. Ushbu fikrlar zamon va makon nuqtai nazaridan "hamkorlik"ning yo'lga qo'yilishi jamiyat hayotida qator ijobiy ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni shakllantirdi.

Keyingi davrlarda sharq allomalari (Farobiy, Nizom ul-Mulk,) ning qarashlarida sharqona boshqaruv tizimi, sharqona axloq qoidalari, erkinlik va adolat tamoillari misolida mamlakat aholisining farovon yashash yo'llarini ko'rsatib bergan. Hukumdorning oqilona yuritgan siyosati uning hokimiyatini mustahkam bo'lishini kafoloti ekanligini takidlaydi. Jamiyatda ijtimoiy adolat tamoillari o'rnatilishida hamkorlik muhim o'rin tutishi mumkin. Bu borada Abu Nasr Farobiy "Har bir inson o'z tabiatiga ko'ra shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtojlik sezadi, uning bir o'zi esa bunday narsalarni qo'lga kiritolmaydi. Shu bois ularga ega bo'lishda kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan kishilarni bir biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi

mumkin”¹ deydi. hamkorlikda tashkil etilgan davlat boshqaruvi ijtimoiy adolat tizimini yaratishda ham muhim hisoblanadi. Chunki, hukmdor siyosiy hokimiyatni yakka idora etsada, jamiyat hayotini nazorat qilishda funksional tartib o‘rnatiladi. Jamiyat hayotida zarur bo‘lgan nazorat tizimining adolatli yo‘lga qo‘yilganligi hukmdorning obro‘-e‘tibori bilan birgalikda uning shaxsiyatini ham belgilab beradi.

Sharq xalqlarida va davlatlarida ham “Buyuk Ipak yo‘li” vositachiligida savdo-iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy aloqalar rivojlanib boradi. Bunday aloqalarning rivojlanishida sharq allomalarining hukmdorlarga davlat va xalqaro aloqalarni o‘rnatishdagi o‘g‘itlari va maslahatlari, adolatli boshqaruv va oqilona siyosat, sharqona ahloq tizimi hamda islom ma‘rifatining o‘rni muhim bo‘lgan. Bundan ko‘rinadiki, davlat va jamiyat hayotida ma‘rifat, ijtimoiy adolat, ijtimoiy turmush darajasi, sharqona axloq tizimining shakllanishi va o‘ziga xos kontekstda rivojlanishida sharqona jamoaviy hamkorlik muhim o‘rin tutgan.

So‘ngi o‘rta asrlardagi g‘arb faylasuflari (N.Makiavelli, T.Gobbs, J.Lokk, Monteske, I.Kant, Gegel, J.S.Mil) asarlarida inson qadr-qimmatini, tenglik, erkinlik, huquq, hokimiyat kabi siyosiy falsafiy g‘oyalarni targ‘ib qilib, o‘z asarlarida qarashlarini yoritib boshladilar. Bu davr dunyoda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar bo‘lar ekan, imperializmning qulashi va yangi davrning boshlanishi, hamda sanoatlashgan industrial jamiyatlarning shakllanishi davri edi. Ushbu faylasuflarning qarashlari va g‘oyalari ta‘sirida g‘arbda demokratiyaga asoslangan respublika tuzumidagi davlatlar paydo bo‘la boshladi. Bu davlatlarda inson qadr-qimmatini birinchi o‘rinda bo‘lib, tenglik, erkinlik, mulk, huquq, adolat kabi tamoyillarga asoslangan jamiyatlar edi. Davlatlarda ushbu tamoyillarga asoslangan qonunlar ham qabul qilinar ekan, industrial ishlab chiqarish va rivojlanish ta‘sirida inson qadrini ulug‘lovchi tamoyillar xalqaro huquq normalari va shartnomalarga ham ko‘chadi. Natijada davlatlararo hamkorliklar va xalqaro munosabatlarda tenglik, ixtiyoriylik, mulk va huquqlar, adolat, qonuniylik tamoyillari o‘rnatila boshladi.

¹ Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 86-b.

Keyingi davrlarlarda globallashuv ta'sirida dunyoning geosiyosiy manzarasi o'zgarib bordi va dunyoda rivojlangan yirik sanoatlashgan davlatlar bilan birgalikda, yangi sanoatlashmagan mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Keyingi jarayonlar yosh mustaqil yoki iqtisodiyoti nisbatan qoloq davlatlarni rivojlanishi uchun kurashi va yirik davlatlar tomonidan yosh mustaqil davlatlarni ta'sir doirasida tutish uchun kurash boradi. Hozirgi global davrda yirik davlatlarning ta'sir doirasiga tushib qolishdan saqlanish uchun, hamda o'zaro rivojlanishni rag'batlantirish maqsadida rivojlanayotgan davlatlar mintaqaviy hamkorlikni maqul ko'rmoqda. Ammo geosiyosiy jihatdan ustun bo'lgan, rivojlangan davlatlar manfaatlari teng bo'lmagan mintaqaviy tuzulmalar yoki tashkilotlar doirasida aloqalarni mustahkamlashga urinadilar. O'z navbatida nisbatan taraqqiy qilmagan mamalakatlar erkinlik, adolat, tenglik, qonuniylik tamoyillarini o'rnatish va ilgari surishga harakat qiladilar. Chunki, bunday yondoshuv mustaqillikning asosiy garovi bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda mintaq va mintaqaviy hamkorlik konsepsiyalarini ilgari surgan olimlarning qarashlarini ko'rib chiqsak.

“Mintaqaviy hamkorlik” tushunchasi haqida ham turli xil qarashlar mavjud. G'arb tadqiqotchisi E.Xaas bu atamani **“milliy ko'lamda harakat qiluvchi davlatlarni o'ziga torta oladigan yangi siyosiy ta'sir etuvchi markazlarning vujudga kelish jarayoni, deydi”**². Bundan kelib chiqadiki tadqiqotchi hamkorlikda ta'sir markazlarini bir tomonlama bo'lishi mumkinligini misol keltirgan desak, bugungi kunda hamkorlikka ta'sir siyosiy, iqtisodiy, diniy-madaniy yoki etnik ko'lam kasb etishi mumkin. Shu o'rinda takidlash joizki, ma'lum mintaqada hamkorlik erkinlik, tenglik, ixtiyoriylik kabi tamoillarga asoslanmasa, ma'lum vaqtdan so'ng shakllangan ta'sir markazlarida lidirlik uchun intilish paydo bo'lishi mumkin. Bunday ta'sir markazlariga hokimiyat, mulkiy ustunlik va milliy yetakchilik hatto hokimiyat va jamiyatdagi ruhiyat ham muhim ro'l o'ynashi mumkin. Misol tariqasida o'rta asrlar yevropasida (VIII-IX asrlar) Buyuk Karl nomli imperator hukmronlik qilganligini bilamiz. Tarixiy

² Harrison R. Europe in question: theories of regional international integration London- Georae Allen & Unwin Ltd., 1974, 21 p.

ma'lumotlarga qaraganda Buyuk Karl davlatida muqim poytaxt bo'lmaganligi keltiriladi. Buyuk Karl bunday yo'l tutishdan maqsadi imperator butun ayonlari bilan bir shaharda qolgan vaqt davomida shahar aholisi oziq-ovqat bilan taminlashi lozim bo'lgan. Bir shaharda uzoq vaqt qoladigan bo'lsa, imperator va saroy ayonlarini taminlashda shahar aholisi uchun bir qancha qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin edi. Imperatorning bu harakati o'sha davr nuqtai nazaridan butun boshli katta shaharlarga bir Feodal egalik qilganligidan kelib chiqsak, Imperatorni kutish va butun yil davomida mehmon qilish ular uchun sharaf hisoblangan. XVII-XVIII asrlarda yshab o'tgan fransuz faylasufi **Sharl luyi Monteskie** Monarxiya boshqaruvida sharaf muhim ekanligini takidlaydi: "Monarxiya boshqaruvi, ...martabalar, imtiyozlar va hatto nasliy dvoriyanlik mavjudligini nazarda tutadi. Sharafning tabiati – o'zgalardan afzal ekanligini his qilish va farqli bo'la olishni talab etadi. Shu tariqa sharaf boshqaruvning ushbu shaklida o'z o'rnini topa oladi."³ Ammo, bu sharafning jabri oddiy xalqqa tushadi va buni imperator yaxshi tushungan. Shuning uchun har yili boshqa boshqa shaharlarga boradi. **Asosiy maqsad esa davlatdagi aholi, insonlar turmushi va umumiy rivojlanishni tenglashtirish, erkinlashtirish, bir shahardan boshqasini ustun qo'yimaslik edi.** Imperatorni nomi tarixda "Buyuk Karl" sifatida qolishida ehtimol shunday qarorlari ham sabab bo'lgan. Zamonaviy dunyoda ayrim rivojlangan davlatlar va jamiyatlarda aholi daromadlari keskin farqlanishini oldini olish maqsadida satsial g'oyalarni ilgari suruvchi partiyalar aholi, insonlar turmushi va umuyiy rivojlanishni tenglashtirish, erkinlik va ijtimoiy adolat tamoillarini o'rnatishni targ'ib qiladilar. Bunday paradokslar jamiyat hayotidagi hamkorlik, jamiyat manfaatlarini tenglashishi, ijtimoiy farovonlik, siyosiy va iqtisodiy "hamkorlik" muhitini shakllanishida asos bo'lishi mumkin.

Globalashuv davrida milliy ko'lamda ajralgan (Markasiy Osiyo, Kavkaz.) va milliylik aks etmaydigan (Yaqin sharq) mintaqa davlatlari mavjud. Mintaqaviylashuv yoki mintaqaviy hamkorlikda etnik birlik munosabatlar

³ Sharl luyi Monteskie Qonunlar ruhi haqida "TRUST AND SUPPORT" nashriyoti T. 2024-y 73 b. Hamid Sodiq tarjimasi.

rivojlanishida asos bo'lishi mumkin, ammo birqancha millatlar ruhiyatining ayro shakllanishi hamkorlikda liderlik kayfiyatini uyg'otadi. Bunday holat, ayniqsa milliy manfaatlar to'qnashgan vaqtda yoki hududlarda namoyon bo'ladi.

Milliy davlatlarning paydo bo'lishi va milliy manfaatlarning kuchayishi mintaqaviy hamkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yangi ta'sir markazlarining paydo bo'lishi esa biz maqolada etirof etayotgan erkinlik, tenglik, ixtiyoriylik kabi adolatli "hamkorlik" tamoyillariga zid kelishi mumkin. Shu o'rinda tadqiqotchi **By Babalola Abegundening** quyidagi fikrlari o'rinalidir: "Mintaqaviy hamkorlik tashabbusining umumiy maqsadi, har qanday rivojlanish kun tartibi kabi, farovonlik, farovonlikni oshirish, qashshoqlik va tengsizlikni kamaytirish, demokratik boshqaruvni kuchaytirish, xavfsizlik va infratuzilmani rivojlantirishdir"⁴. Demak, ijtimoiy adolat va hamkorlik tamoillari mintaqaviy munosabatlarda ham asos vazifasini bajaraoladi.

Globalashuv davrida mamlakatimizga o'xshagan endi rivojlanayotga va kam rivojlangan mamlakatlarga yuqori darajada iqtisodiy, siyosiy ta'sirga ega bo'lgan davlatlar ta'siridan saqlanish maqsadida mintaqaviy hamkorlik tuzulmalarini tuzishga alohida e'tibor qaratmoqdalar.

Xulosa o'rnida, jamiyat hayotida qator ijobiy ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni yo'lga qo'yishda "hamkorlik" tamoillariga amal qilinish tarafdorimiz.

Hamkorlikda tashkil etilgan davlat boshqaruvi ijtimoiy adolat tizimini yaratishda ham muhim hisoblanishini e'tirof etamiz.

Jamiyat hayotidagi hamkorlik, ijtimoiy adolat va hamkorlik tamoillari, jamiyat manfaatlarini tenglashishi, siyosiy va iqtisodiy "hamkorlik" muhitini shakllanishi ijtimoiy farovonlikka shuningdek, mintaqaviy munosabatlarda ham rivojlanishning asosi bo'lishi mumkin.

⁴ By Babalola Abegunde Regional Cooperation and State Sovereignty// Athens Journal of Law - Volume 7, Issue 2, April 2021 – Pages 169-188 <https://www.athensjournals.gr/law/2021-7-2-3-Abegunde.pdf>

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Harrison R. Europe in question: theories of regional international integration London- Georae Allen & Unwin Ltd., 1974, 21 p.
2. Sharl luyi Monteskie Qonunlar ruhi haqida “TRUST AND SUPPORT” nashriyoti T. 2024-y 73 b. Hamid Sodiq tarjimasi.
3. By Babalola Abegunde Regional Cooperation and State Sovereignty// Athens Journal of Law - Volume 7, Issue 2, April 2021 – Pages 169-188 <https://www.athensjournals.gr/law/2021-7-2-3-Abegunde.pdf>
4. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 86-b.
5. M.M. Muhammadsidiqov Xalqaro mintaqashunoslik. o‘quv qo‘llanma. - T.: «Barkamol fayz media», 2017, 8, 30 bet.
6. O.O. Sirojov Mazirov M.M. Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligining istiqbollari va imkoniyatlari. –T.: O`zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021. b-9.